

## TILNI MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN ZAMONAVIY STRATEGIYALAR

*Sh. Hojiyeva*<sup>1</sup>

*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada tilni mustaqil o'rganish uchun zamonaviy strategiyalar tahlil qilinadi. Immersiv (chuqur sho'ng'ish) yondashuv, gamifikatsiya, sun'iy intellekt vositalari, faol va passiv metodlarni uyg'unlashtirish kabi samarali usullar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, motivatsiyani saqlash va real maqsad qo'yishning ahamiyati ta'kidlanadi. Mustaqil til o'rganishda texnologiyalar va an'anaviy yondashuvlarni birlashtirish eng samarali natijalarga olib kelishi mumkinligi xulosa qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Sun'iy intellekt, Duolingo, texnologiya, motivatsiya, immersiv yondashuv, gamifikatsiya.

Bugungi globallashtirish dunyoda xorijiy tillarni bilish nafaqat bilim, balki muhim ko'mikmaga aylandi. Mashhur ruhshunoslar xorijiy tillarni o'rganish inson dunyoqarashini qisman bo'lsa-da o'zgartirish xususiyatiga ega degan fikrni ilgari surmoqdalar. Xorijiy tillarni o'rganish asnosida o'sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishib borish imkoniyati paydo bo'ladi.[1] An'anaviy o'quv kurslari va repetitorlik mashg'ulotlari bilan bir qatorda, mustaqil til o'rganish usullari ham keng tarqalmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari va interaktiv o'quv materiallari bu jarayonni ancha samarali qiladi.

Ba'zan, o'quvchilar til o'rganishdagi qiyinchiliklarini shu tilda gaplashuvchi chet davlatlarida bo'lishga sharoitlari yoki o'sha tilda gaplashadigan do'stlari yo'qligi bilan bog'laydilar. Aslini olganda esa, hozirgi texnologiya va Internet rivojlanayotgan davrda bu kabi vajlar o'rinsiz. Ijtimoiy tarmoqlarda xususan facebook, twitter, telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va Duolingo kabi platformalar orqali til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullardandir.[2] Bundan tashqari tilni tabiiy muhitda o'rganish, yani o'sha tilning ichida yashash juda muhim. Bu immersiya-chuqur sho'ng'ish deb ataladi. Kun tartibi o'rganayotgan tilga moslashtiriladi: Telefon, komputer menyulari o'sha tilga o'zgartiriladi, o'sha tilda filmlar, multfilmlar va videolar subtitrlari yoki subtitrsiz tomosha qilinadi. Yana bir samarali usullardan biri bu gamifikatsiya va interaktiv dasturlar yordamida o'rganish. Internetda juda ko'p til o'rganish uchun tekin platformalar mavjud va bu ilovalar o'yin elementlari orqali o'quvchiga motivatsiya beradi. Bundan tashqari sun'iy intellekt (AI) til o'rganishni ancha samarali va qiziqarli qilishi mumkin. AI moslashtirilgan darslar, ovozni tanish texnologiyasi orqali talaffuzni tekshirish va grammatika bo'yicha real vaqtda fikr-mulohaza beradi. Bundan tashqari, AI til o'rganish jarayonida foydalanuvchining qiziqishlariga mos keladigan materiallarni tanlab beradi va o'rganuvchilar o'rtasida interaktiv muloqotni ta'minlaydi. AI yordamida til o'rganish imkoniyatlari kengayib, foydalanuvchilarga istalgan vaqtda va joyda o'rganishga qulay sharoit yaratadi. Shuni ta'kidlash joizki, til o'rganishda faqat tinglash va o'qish yetarli emas. Kundalik yuritish, blog yozish, talaffuzdagi kamchiliklarni to'g'irlash uchun o'rganayotgan tilda ovoz yozib, uni tinglash muhim.

Til o'rganish – uzoq davom etadigan, izchillik va sabr talab qiladigan jarayon. Bu yo'lda eng katta muammolardan biri – motivatsiyaning pasayishi va yo'nalishning yo'qolishi. Aynan shu sababli aniq va realistlik maqsad qo'yish til o'rganishda muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omillaridan biridir. Maqsadsiz til o'rganish chalkash yo'lda yurishga o'xshaydi: yo'nalish bo'lmasa, harakat samarasiz bo'lishi mumkin. Maqsad nima uchun kerak? Til o'rganishda aniq maqsad quyidagi jihatlarida foydali bo'ladi:

Motivatsiyani oshiradi – Maqsad bo'lsa, ortga chekinish kamroq bo'ladi. Chunki harakatning sababi aniq bo'ladi.

Yo'nalishni belgilaydi – Qaysi bosqichda ekanligingiz va qayerga borayotganingizni tushunasiz.

O'rganish rejasini tuzishga yordam beradi – Qanchalik vaqt va kuch sarflash kerakligini aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Natijalarni kuzatish imkonini beradi – Taraqqiyot kuzatilib borsa, motivatsiya yo'qolmaydi.

Motivatsiya ichki (qiziqish, shaxsiy maqsadlar) yoki tashqi (ish uchun, sayohat) bo'lishi mumkin. Qiziqishni saqlab qolish uchun o'rganish usullarini o'zgartirish, o'rganilayotgan tilni kundalik hayotga qo'llash va maqsadlarni aniq belgilash kerak. Muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va izchillik muhim. Chet tilini o'rganish bo'yicha Gardner, "Shaxs chet tilini o'rganishga bo'lgan istagi paydo bo'lsagina bu inson chet tilini o'rganishga inlitilishidan dalolat beradi"- deb aytadi. Motivatsiya mavhum tushuncha hisoblanib, motivatsiyani

<sup>1</sup> Hojiyeva Shahlo Mars qizi, SamDChTI Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich 2301-guruh talabasi

aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Motivatsiya orqali chet tilini o'rganuvchi talabalar ajralib turadi, chunki ularda chet tilini o'rganishda ishtiyoqi baland bo'lganligi va ular chet tilini o'zlashtirishda yaxshiroq natijaga erishishi bilan ko'rinib turadi.[3]

Gabrael Wyner shunday deydi: "Agar zavqlanish imkoniyati bo'lsa, hech qachon xavfsiz yo'lni tanlamang. Til sizning doimiy hamrohingiz bo'lib qoladi, u doimo ongingizda yashaydi. Agar siz tanlagan tilingizni yoqtirsangiz, uni o'rganish jarayoni qiziqarli bo'ladi va siz tezroq o'rganasiz".[4]

Tilni mustaqil o'rganish – zamonaviy dunyoda har kimga ochiq imkoniyat bo'lib, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bu jarayonni yanada osonlashtirmoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun eng muhim omillar – aniq maqsad qo'yish, reja asosida ishlash, muntazam amaliyot va motivatsiyani saqlab qolishdir. Zamonaviy strategiyalar til o'rganishni faqat dars jarayonidan iborat emas, balki hayot tarziga aylantirish imkonini beradi. Muhimi, til o'rganish faqat grammatikani yodlash emas, balki muloqot orqali uni haqiqiy hayotda qo'llashdan iborat. Agar til o'rganish uzoq safar bo'lsa, maqsad – xarita. Agar xarita aniq bo'lsa, yo'lda adashmaysiz. Har bir insonning maqsadi o'ziga xos, lekin eng muhim narsa – doim oldinga intilish va jarayondan zavqlanish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. <https://odam.uz/news/til-o-rganishning-10-ta-qoidaga-asoslangan-oston-usullari>
- [2]. Fotima Abdulaminova. *Til o'rganish kaliti*.
- [3]. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-o-rganishda-motivatsiya-va-munosabatning-psixolingvistik-asoslari>
- [4]. Wyner, G. (2014). *Fluent forever: How to learn any language fast and never forget it*. Harmony.